Ma'lumki, tijorat banklari depozitlari va kreditlari miqdorining o'sishi tijorat banklari foiz siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Bank tomonidan depozitlar bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalari, shuningdek, kreditlar bo'yicha o'ndirish uchun belgilangan foiz stavkalari bankning depozit va kredit operatsiyalari hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, banklarning foiz siyosati ularning likvidlilik darajasiga ta'siri qanday bo'ladi. Agar bu foiz kredit bilan bog'liq bo'lsa hamda u oshadigan bo'lsa, unda banklarining likvidlilik darajasi ham yuqori bo'ladi. Agar foiz stavkasi depozit bilan bog'liq bo'lsa va depozitlarning foiz stavkasi pasayadigan bo'lsa, unda banklarning likvidliligi mazkur depozitlarning muddatiga bog'liq bo'lib qoladi. Agar uzoq muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik oshadi, qisqa muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik pasayadi. Ushbu nazariy qoidalar, hozirda O'zbekiston bank amaliyotiga qanchalik mos keladi? Bu esa, maxsus tadqiqot olib borishni taqazo etadi hamda maqolaning dolzarbligini oshiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Piter Rouz (1997)ning fikrga ko'ra tijorat banklari tomonidan to'qnash keladigan risklar orasida foiz riskini xavflilik darajasi yuqori[1] deb ta'kidlangan, chunki foiz stavkalarining keskin o'zgarishi banklarning daromadiga hamda bank aktivlari, passivlari va kapitali qiymatiga ta'sir etadi. Foiz riskini oldini olish uchun moliyaviy operatsiyalarni xedjerlash kerak bo'ladi. Foiz riskini xedjerlash moliyaviy instrumentlarni sotish yoki sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ularni foizli opsionlar, foizli fyucherslar va foizli svoplar orqali himoyalash mumkin:

- foizli opsion zayomda belgilangan narxda kelishilgan ma'lum bir davrda o'rnatilgan foiz stavkasida (majburiy bo'lmagan holda) foiz to'lash yoki olish huquqini beradi;
- foizli fyuchers kelajakda belgilangan muddatda foiz stavkasida kreditlar berish yoki depozitlar olishga majburiyat beradi;
- foizli svop-to'lovlarni suzib yuruvchi foiz stavkasidan qat'iy belgilangan foiz stavkasiga yoki teskarisini qo'llashga imkon beradi.

Klassik nazariyada Keyns Dj.M. (1999) foiz stavkasi va uning me'yori haqida foiz me'yori bozorda kapitaldan foydalanganlik uchun to'lanadigan baho sifatida aniqlanadi[2] degan fikrni bildirgan.

Amerikalik iqtisodchi I. Fisher (2001) foiz stavkasiga quyidagicha ta'rif beradi: "foizning darajasini foiz mukofoti sifatida aniqlasak bo'ladi, chunki u pulda aks etgan bo'lib shartnomada kelishilgan davrdan keyin to'lanishi kerak"[3].

O. I. Lavrushin (2014) ssuda foizi turli narxdagi qiymatining bahosi, uning ma'lum bir foydalanilgan davrdagi qiymat hisobidan kelib chiqishini bildirgan. Agar ilmiy nuqtayi nazardan qarasak ssuda uchun belgilangan foiz stavkasi qarz oluvchining daromadini bir qismidan kelib chiqadi[4].

Qulliyev I. Y. (2010) tijorat banklarida kredit bahosini shakllantirishda bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi degan fikrda. Tijorat banklarining kredit bahosining me'yori banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar bahosi, kredit operatsiyalari bo'yicha bankning operatsion xarajatlari, kredit riski bo'yicha ustama hamda bankning marjasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu holatda kreditning bahosini quyidagi formula orqali aniqlagan[5].

$$R=Dr+Do+P+S+A$$

Bunda,
R – bank krediti bahosi;
Dr – bankning jalb qilingan mablag'lari bahosi;
Do – tijorat banki operatsion xarajatlari;
P – kredit riski bo'yicha ustama;
S – bank marjasi;
A – bank tomonidan belgilanadigan qo'shimcha to'lovlar.

Bankda aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda quyidagi omillar inobatga olinadi:

---

1 Питер Роуз. Банковский менеджмент: Предоставление финансовых услуг. Пер. с англ. -М: ДЕЛО, 1997. –768 с.
2 Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. Пер. Н. Н. Любимов. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 с.
3 Ирвинг Фишер. Покупательская сила денег. –М.: ДЕЛО, 2001. – 320 с.
4 Лаврушин О. И. Устойчивость банковской системы и развитие банковской политики: монография /-М: КноРус, 2014. –280 с.
5 Қуллиев И. Я. Кредит баҳосининг шаклланиши ва уни такомиллаштириш. И. ф.н. илм. дар. ол. учун ёз. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 16 б.

- markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi;
- bozor sharoitlari;
- pul mablag'larini oshirish xarajatlari;
- proektning riskli darajasi;
- qarzdorning moliyaviy darajasi, ishonchlilik darajasi, tulovga qobiliyatliligi.

Bank kreditidan foydalanilgan vaqt uchun haq to'lash kredit narxini yoki bahosini tashkil etadi, u hisobot oyi boshlangunga qadar bank bo'yicha yuzaga keladigan o'rtacha foiz stavkasi va marjani o'z ichiga oladi. Bank oladigan va to'laydigan foiz o'rtasidagi farq marja deb yuritiladi. Ba'zi adabiyotlarga ko'ra foiz marjasi – bank aktiv va passiv operatsiyalari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari o'rtasidagi farqdir. Y. Abdullayev, T. Qoraliyev fikriga ko'ra, "foiz marjasi – bank aktivi keltirgan daromad foizi bilan bank majburiyatlari bo'yicha xarajat foizi o'rtasidagi tafovutdir"[6]. Marja – kreditlar va sof to'lovli majburiyatlar foiz stavkalari o'rtasidagi farqdir. Xalqaro standartlarga asosan marja 2 foizdan kam bo'lmagan miqdorni tashkil etishi tavsiya qilinadi.

Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda foizli marja – bu bank aktivlaridan daromad keltiruvchi foizli daromad va bank majburiyatlari bo'yicha foizli xarajat o'rtasidagi farq degan xulosa qilish mumkin. Foizli marjani foizlar bo'yicha keladigan sof daromad ham deb atashadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi[7]:

$$М = \frac{Дф - Рф}{Ад} * \mathbf{100\%}$$

M – foizli marjaning hajmi;
Df – foizli daromad;
Rf – foizli to'lovlari bo'yicha xarajatlar;
Ad – foiz ko'rinishida daromad keltiradigan aktivlar.

Foiz marjasi bu bankning foiz bo'yicha ko'rgan daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Marja bank xarajatlarini qoplash uchun, risklarni, inflyatsiyani inobatga olgan holda daromad ko'rish uchun mo'ljallangan.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklarini daromadlarini hisoblashda operatsion marja ham ishlatiladi. Operatsion marja bankning asosiy operatsiyalaridan ko'radigan daromadlari. Quyidagi formula orqali hisoblab topiladi[8].

$$ОпМ = \frac{Дбокд}{Адка}$$

Dbokd – bankning asosiy operatsiyalaridan ko'radigan daromadlari;
Adka – daromad keltiruvchi aktivlar.
OpM – operatsion marja

Tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan ko'radigan daromadlari tarkibi:

- sof foizli daromad;
- valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan sof daromad;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha qilingan operatsiyalardan ko'rilgan sof daromad;
- lizing operatsiyalaridan ko'rilgan sof daromad;
- qimmatbaho metallar bilan qilingan operatsiyalarda ko'rilgan sof daromad[9].

Haqiqiy marjani olish uchun bankning jami foizli daromadlari va jami foizli xarajatlarini o'rtasidagi farqdan yoki ma'lum bir foizli aktiv operatsiyalari o'rtasidagi farqdan ko'rish mumkin. Masalan kreditlar bo'yicha foiz o'ndiruvi va kredit resursi uchun foizli xarajatlar farqi.

Haqiqiy foizli marja quyidagi formula orqali aniqlanadi[10]:

$$\mathbf{M = Fk - Fr}$$

M – haqiqiy foizli marja;
FK – kreditlar bo'yicha oylik foiz stavkasi;
FR – resurslar bo'yicha oylik foiz stavkasi.

Foizli marjaning hajmiga, kreditlarning tarkibi, tuzilishi va ularning manbalari asosiy faktorlar bo'lib hisobla-

6 Y. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullayeva // Bank ishi. -T.: MOLIYA-IQTISOD, 2009. – 463 b.
7 O'sha manba.
8 O'sha manba.
9 O'sha manba.
10 O'sha manba.

nadi. Kreditlarni muddatlari bo'yicha joylashtirish, riskdan himoyalash, kredit maqsadlari kreditni daromadliligini ta'minlaydi. Bu holatda depozitlarning hajmi, turlari va muddatlari muhim o'rin tutadi.

Foizli marjaning o'zgarishi banklarning aktiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarining ko'tarilishi va tushishi bilan bog'liq bo'lishi, jalb qilingan pullik resurslarning passiv operatsiyalarga ta'siri va uning kreditlardagi ulushi ham ta'sir etishi mumkin. Jalb qilingan pullik resurslarni muddatlari va kreditlarning muddatlari marjaga ta'sir etadi.

Tijorat banklarining hisob kitoblarini samarali olib borilayotganini hisoblash uchun tijorat bankining spredini aniqlash kerak bo'ladi. Hamda sof foizli marja, tijorat bankining faoliyatini raqobatbardoshliligini va boshqa jihatlarini o'z ichiga oladi. Spred quyidagi formula orqali aniqlanadi[11].

$$\text{Спрэд} = \frac{\text{Фд}}{\text{Ад}} - \frac{\text{Фх}}{\text{Мхт}}$$

Bu yerda:
Fd – foizli daromad;
Ad – daromad keltiruvchi aktivlar;
Fx – foizli xarajat;
Mxt – xarajatga tortiluvchi majburiyatlar.

Tijorat banklarini spred ko'rsatkichi orqali banklar omonatchilar va kreditorlar o'rtasida vositachilik xizmati ko'rsatishi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligi hamda banklar o'rtasidagi raqobatni ko'rsatadi. Banklar o'rtasida raqobatni kuchayishi odatda kreditlar va xarajatga tortiladigan majburiyatlari bo'yicha o'rtacha foizli daromad hamda xarajatlarni orasidagi farqini qisqarishiga olib keladi. Ushbu holatda boshqa faktorlar ta'siri yo'q deb hisoblasak tijorat banklari daromad topishni boshqa yo'llarni izlashiga to'g'ri keladi.

Yana ushbu ko'rsatkichning ahamiyati shundaki, bankning xizmat ko'rsatishdan ko'rgan daromadiga va moliyaviy natijalariga belgilangan foiz stavkalari o'z ta'siriga ega. Ushbu ko'rsatkichni bog'liq banklar yoki bog'liq bo'lmagan banklar ko'rsatkichi bilan solishtirganda tijorat bankini foiz siyosatini qanchalik samarali ekanligini baholash mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimini tahlil qilganimizda tijorat banklarining xodimlari tomonidan bankning statistik ma'lumotlariga asosan kelajakda ko'rilishi mumkin bo'lgan foyda va zararlarni hisoblaganlar.

Mamlakatimiz tijorat banklarini tahlil qilishda statistik ma'lumotlarni qayta ishlashni korrelyatsion-regression tahlili usuli muhim o'rin tutadi. Tadqiqotni olib borishda jarayonlarning tendensiyasini belgilovchi omillarni aniqlash masalasi yechiladi. Bunda tendensiyani aniqlash uchun bir-biriga aloqador o'zgaruvchilarni ya'ni bir omilni o'zgarishi boshqasini o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatuvchi omillarni olamiz.

Tadqiqotda bank kredit qo'yilmalariga jalb qilingan mablag'lari, depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi hamda kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasini 120 oylik ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liqligining korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirganmiz.

Amaliy ma'lumotlariga asoslanib Microsoft Office Excel dasturida statistik ko'rsatkichlarini tahlil qildik. Dasturda korrelyatsion-regression tahlilni amalga oshiramiz hamda bank kreditlariga jalb qilingan mablag'lari, bankning kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi hamda depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaymiz. "Analiz данных" → "Regressiya" funksiyasiga kirib amallarni bajaramiz. Bankning jalb qilingan mablag'lari, bankning kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi hamda depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasini ta'sir qiluvchi omil, bank kreditlarini esa natijaviy omil sifatida olganmiz.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda O'zbekiston bank tizimi mustahkam iqtisodiy-huquqiy bazaga ega bo'lishi bilan birga, islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ham ajralib turibdi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish bilan birga, banklarning investitsion faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini qondirish va makroiqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta moliyalash stavkasi doimo o'zgartirib borilmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari hisobga olinadi. Pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari esa markaziy bankning pul-kredit siyosati va boshqa bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Shunday qilib, respublikadagi barqaror mak-

11 O'sha manba.

roiqtisodiy holat va yuritilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari, jumladan tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz stavkalari dinamikasida o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi pul bozoridagi o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining o'zgarishini tijorat banklari tomonidan kredit qo'yilmalardagi ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Hozirda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga ortib borayotgani bilan birgalikda, kreditlarning manbayi bo'lgan depozitlar va ular asosida joylashtirilgan kredit qo'yilmalarining o'rtacha foiz stavkasi o'zgaruvchan ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Bu borada, markaziy bankning majburiy zaxira talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda pul-kredit siyosatining muhim instrumentlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.

Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash vaqtida resurslar qiymati, kreditga xizmat ko'rsatish bo'yicha prognoz etilayotgan xarajatlar, vositachilik va ma'muriy xarajatlar, ushbu kredit bo'yicha xarajatlarning ortishiga olib keluvchi ehtimoliy risklar va bank foydasi hisobga olinadi. Kredit xizmatlari uchun to'lovlarni belgilashda bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan foiz siyosati va tariflardan foydalaniladi.

Har bir tijorat banki asosiy faoliyati hisoblanmish kredit operatsiyalaridan foiz ko'rinishida daromad oladi. Kredit foiz stavkasini belgilashda tijorat banklari iqtisodiyotda yuz beradigan inflyatsion o'zgarishlarni hisobga olib mijozlar bilan kredit shartnomalari tuzadilar. Bu o'z navbatida tijorat banklari tomonidan olinadigan foizli daromadlarini o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiyani ta'siridan qochish, riskdan himoyalanish hamda bank aktivlarini samarali boshqarishda tijorat banklari suzib yuruvchi foiz stavkalarini shartnomalarda kiritishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublikamiz bank amaliyotida foiz stavkasining qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalaniladi. Bu foiz stavkalari banklarning depozit va kredit siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari kreditor sifatida suzib yuruvchi foiz stavkalarini o'rnatishdan manfaatdor. Chunki bunda bank foiz stavkalarini tebranishidan o'zini holos qiladi. Mijozlar esa kredit olishda qat'iy foiz stavkalaridan foydalanishga harakat qiladilar. Qat'iy foiz stavkalarida kredit olish mijozni foiz stavkasini oshib ketishi natijasida ortiqcha xarajat qilish xavfidan ozod etadi.

Mijozlar tijorat banklariga depozitlar qo'yishlarida aksincha, bank bilan shartnomada kelishgan holda suzib yuruvchi foiz stavkalarini o'rnatilishidan manfaatdordir. Bu holatda mijozlarning qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilangan foiz stavkasining oshishi natijasida qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Respublikamiz bank amaliyotida suzib yuruvchi foiz stavkalaridan depozitlar va kreditlar uchun deyarli ishlatilmaydi, ishlatilsa ham juda kam miqdorda ishlatiladi. Buning natijasida tijorat banklarining foiz riskiga uchrash xavfi kuzatiladi.

Kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmaslik holatlarida bank tomonidan yuqori foiz stavkalarida mijozlardan foiz o'ndirish holatlari mavjud bo'lib, bu haqda bankning kredit va foiz siyosatida belgilab qo'yiladi.

Shu bilan birga, mijoz va bankning o'zaro kelishuvlariga ko'ra kredit uchun foiz stavkasi, ya'ni kredit bahosi pul bozorining holati va inflyatsiya darajasining o'zgarishiga qarab belgilangan darajadan oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunday holatlar esa o'z navbatida, bankning likvidlilik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Aksincha, berilgan kreditlar yoki jalb qilingan majburiyatlar qat'iy belgilangan foiz stavkalarda amalga oshirilsa, bankning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, tanlanmaning korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,98 ekan. Bu Cheddok shkalasi bo'yicha "juda yuqori" zich bog'liqlikni ifodalaydi. Demak, tahlil qilinayotgan miqdorlar o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud ekan.
2. Aniqlangan korrelyatsiya koeffitsiyentini muhimligini tekshiramiz. Jadval bo'yicha korrelyatsiya koeffitsiyentini muhimlilik mezoni $t_r$ = 1332,3 ga teng. FRASPOBR funksiyasi yordamida hisoblangan Fisher taqsimot qonuniga ko'ra jadval qiymati tf=2,68ga teng. Bundan $t_r > t_f$ ekanligidan, demak korrelyatsiya koeffitsiyenti muhim hisoblanadi va tasodifiylik qonuniga bo'ysunadi.
3. Chiziqli regressiya tenglamasini ko'rinishini $y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \beta_3 x_3 + u$ aniqlaymiz. Ozod had $\beta_0 = 194$, o'zgaruvchi had $\beta_1 = 0{,}77$, $\beta_2 = 1034$ hamda $\beta_3 = -630$ Endi tenglamani iqtisodiy ko'rinishda yozamiz:

$$\mathbf{Y = 194 + 0.77X_1 + 1034X_2 - 630X_3}$$

Bu yerda:
Y – Bank kreditlari (BK);
X1 – Jalb qilingan mablag'lar (JM);
X2− Depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, foizda (DF);
X3− Kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, foizda (KF).

Demak, tenglamani quyidagicha yozsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**BK=194+0.77JM + 1034DF –630KF**

Endi β0, β1, β2 va β3 parametrlarni mohiyatli yoki mohiyatsiz ekanligini tekshiramiz. tβ0=3,12, tβ1=59,84, tβ2=2,34 va tβ3=–2,83 ekanligi ma’lum va STYuDRASPOBR funksiyasidan foydalanib Styudent jadval qiymatini hisoblaymiz, u ts=1,98 ekanligi kelib chiqadi. Yuqoridagilardan tβ0>ts bo‘ldi, ya’ni β0 parametr “3,12” ma’noga ega ekan. tβ1>ts bo‘ldi, demak β1 parametr “59,84” moxiyatga ega ekan. tβ2>ts bo‘ldi, demak β2 parametr “2,34” mohiyatga ega ekan. tβ3<ts bo‘ldi, demak β3 parametr “–2,83” mohiyatga ega emas ekan.

4. Determinatsiya koeffitsiyenti R2=0,97 ekanligi ma’lum. Bu bankda kreditlar kredit qo‘yilmalarini o‘zgarishini 97 foiz ushbu model orqali izohlasa bo‘ladi.

## Natijalarning iqtisodiy talqini

Model parametrlarini umumiy hamda alohida hosila olish orqali talqin qilish mumkin.

Xususan, modelimizni JM o‘zgaruvchisiga ko‘ra hosilasini olsak:

$$\frac{d\widehat{БК}}{dЖМ} = \frac{\Delta\widehat{БК}}{\Delta ЖМ} = \mathbf{0,77}$$
$$\Delta\widehat{БК} = \mathbf{0,77} * \Delta ЖМ$$

Ya’ni bank kreditlari va depozitlari bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari o‘zgarmasa (ceteris paribus), jalb qilingan mablag‘larni qo‘shimcha 1 mlrd. so‘mga oshganda o‘rta hisobda bank krediti 770,0 mln. so‘mga oshadi.

Ushbu modelni DF o‘zgaruvchisiga ko‘ra hosilasini olamiz:

$$\frac{d\widehat{БК}}{dДФ} = \frac{\Delta\widehat{БК}}{\Delta ДФ} = \mathbf{1034}$$
$$\Delta БК = \mathbf{1034} * \Delta ДФ$$

Ya’ni bank kreditlari va jalb qilingan mablag‘lar o‘zgarmasa (ceteris paribus), depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasini qo‘shimcha 1 birlikka bank kreditlari mln. so‘mga oshishini anglatadi.

Xuddi shunday modelni KF o‘zgaruvchisiga ko‘ra hosilasini olamiz:

$$\frac{d\widehat{БК}}{dКФ} = \frac{\Delta\widehat{БК}}{\Delta КФ} = -\mathbf{630}$$
$$\Delta БК = -\mathbf{630} * \Delta КФ$$

Ya’ni jalb qilingan mablag‘lar hamda depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi o‘zgarmasa (ceteris paribus), kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasini qo‘shimcha 1 birlikka oshirsak bank kreditlari mln. so‘mga kamayishini anglatadi.

Modelni barcha o‘zgaruvchilariga ko‘ra umumiy hosilasini olganimizda quyidagi yakuniy natijani beradi:

$$\Delta\widehat{БК} = \mathbf{0,77} * \Delta ЖМ + \mathbf{1034}ДФ - \mathbf{630} * \Delta КФ$$

Tadqiqot ishida bank kreditlarini uning determinantlari “jalb qilingan mablag‘lar miqdori”, “depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi” hamda “kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi” orqali tushuntirildi.

Hisob-kitoblar orqali bank kreditini yuqoridagi ko‘rsatkichlarga bog‘liqligini regression tahlili amalga oshirilib, quyidagi model yaratildi:

1-jadval: Tanlanmaning regression tahlili (Microsoft Office Excel dasturida)[12]

| Regression statistika | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Ko‘plik R | 0,985797229 | | | | |
| R-kvadrat | 0,971796176 | | | | |
| Normallashgan R-kvadrat | 0,971066766 | | | | |
| Standart xatolik | 83,34910821 | | | | |
| Kuzatuvlar soni | 120 | | | | |
| | | | | Fisher qiymat | |
| Dispersion tahlil | | | | 2,682809407 | |
| | df | SS | MS | F | Ahamiyatli F |
| Regressiya | 3 | 27766880,4 | 9255626,802 | 1332,305805 | 0,000000 |
| Qoldiq | 116 | 805860,5654 | 6947,07384 | | |
| Jami | 119 | 28572740,97 | | | |

12 Microsoft Office Excel dasturi orqali tayyorlandi.

| | Koeffitsiyentlar | Standart xatolik | t-statistika | P-Znachenie | Quyi 95% | Yuqori 95% | Quyi 95,0% | Yuqori 95,0% |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Y- Berilgan kredit (mln. so'm da) | 193,7910579 | 62,12637582 | 3,119304086 | 0,002287117 | 70,74194 | 316,8402 | 70,74194 | 316,8402 |
| Jalb qilingan mablag' (mln. so'mda) | 0,775337152 | 0,012956876 | 59,83982306 | 0,000038174 | 0,749674 | 0,801 | 0,749674 | 0,801 |
| Depozit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi (foizda) | 1034,979699 | 441,146923 | 2,346111114 | 0,020667698 | 161,2326 | 1908,727 | 161,2326 | 1908,727 |
| Kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi (foizda) | –630,5065835 | 222,3911976 | -2,835123829 | 0,005405763 | –1070,98 | –190,033 | –1070,98 | –190,033 |
| | styudent qiymati | | | | | | | |
| | 1,980626002 | | | | | | | |

$$\Delta\widehat{БК} = 194 + 0,77 * \Delta ЖМ + 1034 ДФ - 630 * \Delta КФ$$

Ushbu modelning determinatsiya koeffitsiyenti hisoblanganda, = 0,97 natijaga erishildi. Bu modelimiz kreditning haqiqiy funksiyasini 97 foizga tushintirishini anglatadi.

Shu bilan birga, ushbu modelni ishonchliligi t va F taqsimotlar bilan gipotezalarni tekshirish orqali baholash amalga oshirildi. Bunda, 95 foizlik ishonch bilan kapitalga va musbat, hamda manfiy bog'liqligi mavjudligi aniqlandi.

Demak, bu degani bank kreditlarning oshishi miqdori jalb qilingan mablag'lar va depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi bilan musbat bog'liqlikka ega ekan shu o'rinda kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi bilan esa manfiy bog'liqlikka ega ekanlinini yuqoridagi tenglama orqali bilishimiz mumkin. Foiz siyosatini yuritishda kredit bo'yicha foiz stavkasini oshirish oqibatida kredit qo'yilmasini pasayishi kuzatilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini qondirish va makroiqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta moliyalash stavkasi bozor talablaridan kelib chiqqan holda o'zgartirib borilganligi tijorat banklarining resurs bazasiga va likvidliligiga ta'sir etdi.
2. Respublikamiz tijorat banklari qisqa va uzoq muddatli kreditlar dinamikasida uzoq muddatli kreditlar ulushini yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Uzoq muddatli kreditlar mustahkam resurs bazani talab etadi. Bu esa likvidlilik riskini vujudga keltiradi.
3. Jami depozitlarda muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushini oshirish lozim. Bu esa o'z navbatida yirik va uzoq muddatli kreditlar ajratishga hamda yuqori foizli daromad olish bilan birga tijorat banklarining likvidliligining oshishiga ijobiy ta'sir etadi.
4. Tijorat banklar o'zlarining biznes rejalariga, tarif siyosatiga alohida e'tibor qaratishlari hamda tarif siyosatini zamon talablariga javob beradigan, mijozlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqish lozim. Bu esa bank xizmatlari bo'yicha foiz siyosatida aks etadi. Natijada, noto'g'ri tanlangan reja yoki foiz banklarning likvidliligining pasayishiga, oqibatida esa yo'qolishiga olib keladi.
5. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga hamda mijozlarning talablariga tez moslasha oladigan bankning foiz siyosatini yuritish va mijozlarning turi bo'yicha alohida tariflar orqali yondashishni yo'lga qo'yish lozim. Bunday holatda banklar o'z likvidliligini oldindan baholay olish imkoni yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Питер Роуз. Банковский менеджмент: Предоставление финансовых услуг. Пер. с англ. -М: ДЕЛО, 1997. –768 с.
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. Пер. Н. Н. Любимов. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 с.
3. Ирвинг Фишер. Покупательская сила денег. –М.: ДЕЛО, 2001. – 320 с.
4. Лаврушин О. И. Устойчивость банковской системы и развитие банковской политики: монография /-М: КноРус, 2014. –280 с.
5. Qulliyev I. Y. Kredit bahosining shakllanishi va uni takomillashtirish. I. f.n. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. –Toshkent, 2010. – 16 b.
6. Y. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmurodov, S. Abdullayeva Bank ishi -T.: MOLIYA-IQTISOD, 2009. – 463 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 23-avgustdagi 27/4-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida"gi nizom
8. http://www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.